

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SO‘Z-MANTIQ
TAFAKKURINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Azamova Xumora Ilyosjonovna

Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Farg‘ona shahar O‘zbekiston respublikasi

Annotatsiya: Ushbu ish maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) bolalarida tafakkurning jadallik bilan shakllanishi, xususan so‘z-mantiqiy tafakkurning rivojlanish jarayoni va uning psixologik xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Tezislarda bayon etilgan ilmiy qarashlarga tayanib, bolalarda tafakkurning uch turi: ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va so‘z-mantiqiy tafakkurlarning o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanishi ochib beriladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida nutqni fonetik, leksik va grammatik jihatdan shakllantirish so‘z-mantiq tafakkurini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, so‘z, ko‘rgazmali-harakatli tafakkur, ko‘rgazmali - obrazli tafakkur, so‘z-mantiq, fikrlash, til, nutq.

Аннотация: Данная работа посвящена изучению стремительного развития мышления у детей дошкольного возраста (3–7 лет), в частности формированию словесно-логического мышления и его психологических особенностей. Опираясь на представленные в тезисах научные идеи, в работе раскрывается, как три вида мышления: наглядно-действенное, наглядно-образное и словесно-логическое развиваются во взаимной связи. Подчеркивается, что формирование речи на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях в дошкольных образовательных учреждениях является одним из ключевых факторов развития словесно-логического мышления.

Ключевые слова: Мышление, слово, наглядно-действенное мышление, наглядно-образное мышление, словесно-логическое мышление, рассуждение, язык, речь.

Abstrakt: *This work is devoted to examining the rapid development of thinking in preschool-aged children (3–7 years), particularly the formation of verbal-logical thinking and its psychological characteristics. Based on the scientific ideas presented in the theses, the paper reveals how the three types of thinking — visual-active, visual-imaginative, and verbal-logical — develop in close interconnection. It is emphasized that in preschool educational institutions, the formation of speech at the phonetic, lexical, and grammatical levels is one of the key factors in the development of verbal-logical thinking.*

Keywords: *Thinking, word, visual-active thinking, visual-imaginative thinking, verbal-logical thinking, reasoning, language, speech.*

Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) bola tafakkurining jadal rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bola avval ko‘rgazmali-harakatli tafakkurdan boshlab, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur orqali so‘z-mantiq tafakkuriga o‘tadi. Shu sababli bu davrda tafakkurning barcha turlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy yutuqlaridan biri bu-rivojlangan nutqdir. Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalardagi so‘z va nutqni faol o‘zlashtirish, nutqning barcha tomonlarini - fonetik, leksik va grammatikasini shakllantirish va rivojlantirish uchun asosiy maskan hisoblanadi.

O‘zbekiston psixologiyasi fanining buyuk namoyondalaridan biri E.G‘oziyev o‘zining “Umumiy psixologiya” darsligida “Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; atrof muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.” Deb aytib o‘tgan.

Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir.

Tafakkur— inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik

asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayibgina qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Falsafa, psixologiya, pedagogika fanlarida tafakkurning quyidagi uch turi ajratiladi:

- 1) ko'rgazmali-harakat,
- 2) ko'rgazmali -obrazli,
- 3) so'z-mantiqiy.

Ko'rgazmali-harakat - bu juda erta bolalik davrida paydo bo'ladigan fikrlashning birinchi turi bo'lib, ushbu turdagi fikrlash yordamida bola vaziyatni real o'zlashtirish, ko'rgazmali-harakatlarni amalga oshirish orqali bilishning muayyan muammolarini hal qiladi.

Tafakkurning ikkinchi turi - ko'rgazmali - obrazli tafakkurdir. Bu tafakkur maktabgacha yoshdagi bolalarda asta-sekin rivojlanadi, bunda bola hissiy g'oyalar va tasavvurlar asosida harakat qila boshlaydi va shu orqali bilish obyektlarining yashirin xususiyatlari va munosabatlarini ochib beradi.

Bollarda so'z-mantiqiy tafakkur aynan katta maktabgacha yoshda, ya'ni 6-7 yoshlarda shakllana boshlaydi. U mavhum tushunchalar va mulohazalar shaklida

sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tafakkurning ushbu uch turi (ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, so'z-mantiqiy) har bir bolada u yoki bu darajada rivojlangan bo'lishi kerak, shuning uchun tafakkurni rivojlantirish muammosi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida alohida o'rin tutadi.

So'z-mantiqiy tafakkur - nutqni tuzilishi, murakkab so'zlarni bir-biriga bog'lash, mulohaza yuritish imkoniyatini yaratish, murakkab mantiqiy bog'lanishlarga, odamga mantiqiy xulosa chiqarish operatsiyalarini bajarishga imkon beradigan o'zlashtirish qonunlariga asoslanadi. Tilning asosiy birligi, obyektlarni tahlil qilish, ulardagi muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish va obyektlarni tasniflash imkonini beradigan vosita bu - so'z hisoblanadi. So'z mavhumlik va umumlashtirish vositasi bo'lib, tashqi dunyo predmetlari orasidagi chuqur bog'lanish va munosabatlarni aks ettiradi.

Tafakkurning bir qancha turlari mavjud bo'lib, eng asosiylaridan biri bu so'z-mantiq tafakkuridir. Ya'ni, til vositalari asosida vazifa bajaruvchi so'z-mantiqiy tafakkur bo'lib, u tafakkur tarixiy rivojlanishining so'nggi bosqichidir. Unga tushunchalar va mantiqiy hosilalarni qo'llash xosdir. So'z-mantiq tafakkuri bola nutqining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bola o'z fikrlarini ifoda etishda til vositasidan foydalanadi, shu orqali atrofdagi predmetlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilishni o'rganadi.

Til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'langan murakkab psixik jarayonlar bo'lib, insonning borliqni anglashida, narsa va hodisalarning mazmunini tushunishda hamda ularni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Til inson tafakkurining tashqi shakli, tushuncha esa uning ichki mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Rus psixologi L.S.Vygotskiy nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri nutq va tafakkurning birligi prinsipidir. Olimning fikricha, tafakkur jarayonlari nutq orqali ifodalanadi, ya'ni bola atrofdagi olamni tushunishda, uni umumlashtirish va mantiqiy tahlil qilishda til vositasidan foydalanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bola faol nutqiy rivojlanish bosqichini boshdan kechiradi. Shu davrda bola

nutqi nafaqat kommunikativ vosita, balki kognitiv (bilish) vosita sifatida ham shakllanadi.

Nutq - ma'lum qoidalar asosida yaratilgan nutq tuzilmalari orqali odamlar o'rtasidagi tarixan shakllangan muloqot shaklidir. Nutq jarayoni, bir tomondan, lingvistik (nutq) vositalar bilan fikrni shakllantirish va rivojlantirishni, ikkinchi tomondan esa nutqni idrok etish va ularni tushunishni o'z ichiga oladi. Nutq inson psixikasining yuqori qismlarini rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Kattalar bolani ona tilida gapirishga o'rgatish orqali, uning aql-zakovati va yuqori his-tuyg'ularini rivojlantirishga hissa qo'shadilar, hamda maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun sharoit yaratadilar.

So'z-mantiqiy tafakkurning asosiy xossalardan biri - o'zaro bog'langan nutqdir. Bog'langan nutq bu fikrni izchil, mantiqiy ketma-ket, tushunarli va maqsadga yo'naltirilgan shaklda ifodalash qobiliyati bo'lib, unda gaplar bir-biriga mazmun jihatdan bog'liq bo'ladi. Uning asosiy belgilaridan biri izchillik, tartiblilik bo'lib, bunda fikrlar ketma-ket rivojlanadi, har bir jumla oldingisidan ma'no jihatdan kelib chiqadi va keyingi mazmunga zamin yaratadi. Izchil ya'ni tartibli nutqda so'zlar tartib bilan joylashadi, shu bois tinglovchi tinglayotgan ma'lumotlarni oson qabul qiladi. Bog'langan nutqning yana bir muhim jihatlaridan biri mantiqiylik sanaladi. Mantiqiy nutqda gaplar o'rtasida sabab-oqibat, taqqoslash, aniqlashtirish yoki izohlash kabi bog'liqliklar mavjud bo'ladi. Bu holat esa fikrning yaxlit va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Natijada tinglovchi nafaqat aytilgan gapni, balki uning ichki mantiqiy tuzilmasini ham bimalol anglay oladi. Bundan tashqari bog'langan nutq tushunarli bo'lishi kerak. Tushunarlilik fikrning ravonligi, so'zlarning o'z o'rnida qo'llanishi, mazmunning aniq ifodalanishi bilan bog'liq. Agar nutqda fikr ifodalanishi jarayonida ortiqcha murakkablik bo'lmasa, tinglovchi fikrni uzil-kesil anglay oladi. Bu, ayniqsa, ta'lim jarayonida juda muhimdir. Nutqning grammatik to'g'riligi ham bog'langan nutqning ajralmas jihatidir. Gaplarning to'g'ri qurilishi, morfologik va sintaktik qoidalarga amal qilinishi nutqning ravon va adabiy me'yorlarga mos bo'lishini ta'minlaydi. Grammatik xatolar ko'paygan sari nutqning mantiqiyliги va tushunarlilik pasayadi.

Nihoyat, bogʻlangan nutq mazmunning yaxlitligiga ega boʻladi. Yaʼni butun matn yoki nutq boʻlagi bitta mavzu atrofida rivojlanadi, chetga chiqishlar boʻlmaydi, barcha fikrlar umumiy gʻoyaga xizmat qiladi. Mazmun yaxlit boʻlsa, matn oson idrok etiladi va esda qoladi.

Rus pedagogika va logopediya soxasi olimlaridan biri A.M. Borodich (1960–1970-yillar) maktabgacha yoshdagi bolalarda soʻz-mantiq tafakkuri va bogʻlanga nutqni rivojlantirish masalalarini oʻrganib, nutqning semantik va grammatik tuzilishi asoslarini aniqlagan. U nutqni bolaning fikrini mantiqiy ifodalash vositasi sifatida koʻrib, bayon qilish, hikoya va dialogik nutq turlarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan. Bu ishlar soʻz-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va nutqni oʻqitishning metodik asoslarini yaratishga xizmat qilgan.

A.M.Borodichning taʼrifiga koʻra - "Oʻzaro bogʻlangan nutq - bu odamlarning muloqotini va oʻzaro tushunishini taʼminlaydigan semantik (yun. "semantikos" — maʼno bildiruvchi, ifodalovchi) batafsil bayon qilishlikdir." "Odamlarning muloqotini va oʻzaro tushunishini taʼminlaydigan" deganda, bunday nutq axborot almashish va tushunish uchun xizmat qilishini nazarda tutgan. Yaʼni, soʻzlovchi fikrini aniq, izchil bayon etadi, tinglovchi esa uni toʻliq tushunadi. "Semantik (maʼnoli) batafsil bayon qilishlik" — bu nutqda soʻzlar tasodifiy emas, balki aniq maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi, fikr mantiqan tartibli, tushunarli va mazmunli tarzda rivojlanadi. A.M. Borodich bu taʼrifi bilan, oʻzaro bogʻlangan nutq bu insonlarning bir-birini tushunishi uchun mantiqan izchil, mazmunan boy va maʼnoli tarzda fikr bildirish shaklidir demoqda. Bunday nutq soʻzlarning oddiy ketma-ketligi emas, balki fikrlarning bir butun tizimli bayonidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshda bolalarda koʻrgazmali-harakat, koʻrgazmali-obrazli va soʻz-mantiqiy tafakkur izchil ravishda shakllanadi. Nutqning fonetik, leksik va grammatik rivoji esa soʻz-mantiqiy tafakkurning asosiy tayanchi hisoblanadi. Til va tafakkur oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, bola fikrlashining ravonligi va mantiqiyiligini taʼminlaydi.

Adabyotlar

- 1 E.G`oziyev “Umumiy psixologiya” darslik Toshkent 2010y 460bet
- 2 О. К. Тихомиров “Психология мышления” Учебное пособие. М.: Изд-во Москва. ун-та, 1984 u 5 bet
- 3 Л.С. Выготский “Мышление и речь” Государственное социально-экономическое издательство. — Москва 1934г
- 4 А. М. Бородич "Методика развития речи детей" Москва 1981 г.
- 5 P.I.Ivanov. M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” darslik Toshkent 2008y